

QADIMGI XITOIY TILSHUNOSLIGI

Andijon davlat chet tillari instituti
Ingliz tili filologiyasi, o'qitish metodikasi va
tarjimashunoslik fakulteti
sharq tillari (xitoy tili) yo'nalishi
102-guruh talabasi
Muhammadibrohimova Malika Ulug'bek qizi
Ilmiy maslahatchi: **Zaynabiddinova I.M**

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xitoy tilshunosligi haqida ma'lumotlar beriladi. Chunki Xitoyda tasviriy fonetika poetika bilan bog'langan bo'lsa, tarixiy fonetika qadimgi matnlarni sharhlashda yuzaga kelgan ayrim masalalarga javob berish bilan shug'ullandi. Xitoy tili tarixiy fonetikasining yaratilishi Xitoy klassik tilshunosligining qo'lga kiritgan muhim yutug'i hisoblanadi. Bu jahon tilshunosligi fanida dastlabki yo'nalish sifatida butunlay tarixiylik prinsipiga asoslangan

Kalit so'zlar: *logogramma, fonetik-prosodemik, dialektologiya, sintagma, matnshunoslik, etimologiya.*

Аннотация: В данной статье представлены сведения о китайском языкознании. Поскольку в Китае образная фонетика связана с поэтикой, историческая фонетика занималась поиском ответов на некоторые вопросы, возникавшие при интерпретации древних текстов. Создание исторической фонетики китайского языка считается важным достижением китайской классической лингвистики. Это первое направление в мировой лингвистике, полностью основанное на принципе историзма.

Ключевые слова: *логограмма, фонетико-просодемика, диалектология, синтаксис, текстовая лингвистика, этимология.*

Annotation: This article provides information about Chinese linguistics. Since in China, figurative phonetics is associated with poetics, historical phonetics was engaged in answering some of the questions that arose in the interpretation of ancient texts. The creation of historical phonetics of the Chinese language is considered an important achievement of Chinese classical linguistics. This is the first direction in the science of world linguistics, which is completely based on the principle of historicism.

Keywords: *logogram, phonetic-prosodemic, dialectology, syntax, text linguistics, etymology.*

Qadimgi xitoy tilshunosligi haqida gap borar ekan, Syuy Shen, ota-bola Van Nyan-Sun va Van In-Chji, Chjan Bin-Lin kabi jahon tilshunoslari qarashlari bilan bir

qatorda, Ilhom Murodov, Dilshodbek O'rofov, Gulnora Satbayeva kabi o'zbek tilshunoslarining ilmiy izlanishlarini ham ko'rishimiz mumkin¹.

Qadimgi Xitoy tilshunosligida yozma manbalar alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Hozirgi davrlargacha yetib kelgan Xitoy yozuvining eng qadimiy yozma yodgorliklari eramizgacha bo'lgan XIII-XI asrlarga borib taqaladi. Ushbu yozma yodgorliklar hayvon (qo'y) suyaklari va toshbaqa qalqonlari bo'lib, ularda fol ochish jarayoni haqida ma'lumot beriladi. Bu qadimgi "manbalar" Xitoy tilshunosligi tarixida va taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi. Fikr yuritilgan davrlardayoq Xitoy iyeroglifi muayyan so'z sifatida, so'zni anglatuvchi, ifodalovchi sifatida xizmat qilgan. Ya'ni Xitoy iyeroglifi logogramma hisoblangan. Xitoy madaniy taraqqiyotiga hind madaniyatining ta'siri natijasida (ya'ni Xitoyga Hindistondan buddizmning kirib kelishi sababli) hind tilshunosligining ta'siri bilan Xitoy tilshunoslari ona tillarining fonetik-prosodemik hodisasi – intonasiyaning to'rtta turini, ko'rinishini ishlab chiqdilar. Xitoy tilshunoslari tomonidan, ayniqsa, xan davrida (bizning eramizgacha bo'lgan 206-y-bizning eramizning 220-y) lek sikologiya, leksikografiya, iyeroglifika fonetika, grammatika va dialektologiya masalalariga katta e'tibor berilgan. Ushbu davrning eng buyuk tilshunosi Syuy Shen "Elementlar va murakkab belgilar haqida" asari bilan yozuv nazariyasining asoslarini yaratdi. Bu manba Xitoy tilshunosligida shu kunlarda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Xitoy tilshunosligi, ayniqsa, XVII-XIX asrlarda keng quloch yoydi. Bu davrlarda tarixiy fonetika, etimologiya va sintaksisga (sintagmaga) oid faktlar ustida ish olib borildi². Shuningdek, tanqidiy matnshunoslik taraqqiy qildi. Xitoy tilshunosligi taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan ota bola Van Nyan – Sun (1744-1832) va Van In-Chji (1766-1834) Xitoy grammatikasining asoschilari sifatida tan olinadi. Xitoy tilshunoslari so'z masalasida mustaqil so'zlarni va yordamchi so'zlarni farqlaganlar. Mustaqil so'zlarni ot, sifat va fe'l turkumiga ajratganlar. Yangi davr tilshunosligining yirik vakili tadqiqotchi Chjan Bin-Lin (1869-1936) bo'lib, u Xitoy tilining me'yoriy va tarixiy fonetikasi, dialektologiyasi masalalarini ishlab chiqdi. Shuningdek, u fonetik yozuv loyihasini ham tuzdi. Umumiy olganda, Xitoy tilshunosligining asosiy yo'nalishi, ayniqsa, o'rta asrlarda fonetika (yoki fonologiya) hisoblangan. Xitoy yozuvi-ideografik yozuv bo'lib, har bir belgi so'zga yoki o'zakka muvofiq keladi. Fonetik jihatdan esa har bir belgi bo'g'inga to'g'ri keladi. Aslida amaliy jihatdan barcha o'zaklar bir bo'g'inlidir³.

XVII-XVIII asrlarda Xitoy tilshunosligi katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Agar Xitoyda tasviriy fonetika poetika bilan bog'langan bo'lsa, tarixiy fonetika qadimgi matnlarni sharhlashda yuzaga kelgan ayrim masalalarga javob berish bilan shug'ullandi. Xitoy tili tarixiy fonetikasining yaratilishi Xitoy klassik tilshunosligining

¹ Нурмонов А. Танланган асарлар. — Тошкент: Академнашр, 2012.

² Расулов Р. Умумий тилшунослик. Дарслик. — Тошкент, 2013.

³ O'rinboyev B., Musayev A. Umumiy tilshunoslik. — Toshkent: Oltin kitob, 2022.

qo‘lga kiritgan muhim yutuq‘i hisoblanadi. Bu jahon tilshunosligi fanida dastlabki yo‘nalish sifatida butunlay tarixiylik prinsipiga asoslangan bo‘lib, o‘z oldiga bevosita kuzatishda berilmagan tilning o‘tmish “shakli” holati bilan bog‘liq hodisalarni, faktlarni tiklash maqsadini qo‘yadi. Ayni jarayonning metodlaridan va qo‘lga kiritgan natijalari, yutuqlardan hozirgi kunlarda ham foydalanilmoq⁴.

Shuningdek, Xitoy tilshunosligi tarixiy jihatdan yanada chuqur va boydir. U qadimgi yozma yodgorliklardan kelib chiqqan bo‘lib, Hind madaniyatining ta'siri orqali rivojlanishni davom ettirmoqda. Bu yozuv nafaqat til, balki xalqning madaniy merosi va taraqqiyotiga ham bog‘liq. Xitoy tilshunosligining rivojlanishi, leksikologiya va grammatika sohasida yangi nazariyalar bilan birga olib keladi⁵.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz joizki, Xitoy yozuvi o‘zining ta'siri va ahamiyati bilan xalq hayotida muhim o‘rin tutadi. Jamiyatning turli jabhalarida, madaniyat va tarixiy tajribasi orqali, Xitoy tilshunosligi kelajak avlodlar uchun ham qimmatli meros bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Нурмонов А. Танланган асарлар. — Тошкент: Академнашр, 2012.
2. Содиков А., Абдуазизов А., Ирискулов И. Тилшуносликка кириш. — Тошкент: Ўқитувчи, 1981.
3. О‘ринбойев В., Musayev A. Umumiy tilshunoslik. — Toshkent: Oltin kitob, 2022.
4. Расулов Р. Умумий тилшунослик. Дарслик. — Тошкент, 2013.
5. Sharipova O‘., Yo‘ldoshev I. Tilshunoslik asoslari. —Toshkent, 2006.

⁴ Содиков А., Абдуазизов А., Ирискулов И. Тилшуносликка кириш. — Тошкент: Ўқитувчи, 1981.

⁵ Sharipova O‘., Yo‘ldoshev I. Tilshunoslik asoslari. —Toshkent, 2006.